

Asarda Bola Qiyofasi Va Uning Fenomeni

Abduvahob Suyundikovich Zaripov¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada asarlarda mavjud bola obrazi psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqolada psixologik tasvir va bola psixologiyasini tadqiq etish orqali muallif va qahramon ruhiy olami haqida umumiy xulosalar chiqarilgan.

Калит сўзлар: bola obrzi, psixologizm, psixologik tasvir, ruhiy erkinlik, muallif va protatip, avtobiografik xarakter, yozuvchi meni va uning asar yaratishdagi o'rni.

O'zbek nasri minglab yillik tarixga ega. "Xalq kitoblari" ham nasrimizning genezisi hisoblanadi. Nasriy asarlarimizni birlashtiruvchi umumiy xususiyat ularda biografik elementlarning ko'proq qamrab olinishidir.

Shunday biografik asarlardan biri, shubhasiz, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybekning "Bolalik" qissasi avtobiografik xarakterda bo'lib, uning bosh qahramoni – Musavoy, ya'ni bo'lajak adibning o'zidir. Qissa bola tilidan hikoya qilinadi. Undagi voqealar Oybekning bolalik xotiralaridir, lekin muallif faqat xotiralar bilan cheklanib qolmasdan, o'sha davrning yirik voqealarini ham tasvirlaydi.

Qissa voqealari XX asrning 10-yillarida kechadi. Bu davr adibning ayni bolalik davridir. Adabiyotshunos A. Rasulovning ta'kidlashicha, "Oybek davrlarni yaxshi eslaydi. Aniqrog'i, XX asrning 10-yillari voqeligi odamlari Oybek ijodining o'qildizidan birini belgilaydi. U "Bobom", "Bolalik", "Baxtigul va Sog'indiq", "Ulug' yo'l" asarlarida shu davrni tasvirlaydi. Demochimizki, Oybek ijodini o'rganganda biografik metodni zinhor unutmaslik kerak".

Bizningcha, badiiy so'z tahlilida asar mohiyatini bevosita matn orqali anglagan muhim. Ya'ni muallifdan matnga emas, matndan muallifga tomon borgan ma'qul. Garchi, "Bolalik" qissasi voqealari memuar tarzda bo'lsa ham, muallif unga bir qancha ijtimoiy ruh bag'ishlaydi. Bu narsa asarning keyingi boblarida ijtimoiy voqealarning yorqinlashuvida ko'rinadi.

"Bolalik" qissasidan bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va sotsiogenetik omillar muhim ekanligini anglash mumkin. Chunki Musavoyning hayoti asosan ijtimoiy muhitda: bozorda, ko'chada o'tadi. Musavoy ham Shum bola kabi o'smir yigit. Faqat G'. G'ulom Shum bolaning 5-6 oylik sarguzashtini tasvirlasa, Musavoyning kamida o'n yillik hayoti aks ettiriladi. Uning yoshi (4-14) muallif tomonidan aniq ko'rsatiladi.

Bu asar Oybekning qirq olti yoshida og'ir va bir umrli xastalikka yo'liqqanida, shunday ijodiy kuchga to'lgan davrida yozilgan durdonadir. Ammo xastalik uning tiliga kishan solib, o'ng qo'lidagi qalamni bir umrga tortib oldi. Oybek ko'pgina asarlarini, jumladan, "Bolalik" qissasini ham oila a'zolariga aytib yozdirdi. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti davr hodisalari ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada bosh qahramon Musaboyning biografiyasini hikoya qilish orqali o'sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy manzarasi chizilgan. Qissa o'z uslubining mayinligi, voqealar mantig'ining kuchliligi va izchilligi, obrazlarning aniqligi, tilining ravon va jozibadorligi bilan kitobxonlarga manzur bo'ladi. Oybek bu qissani yozish bilan birga o'zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyish etadi. Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba'zan ko'z ilg'amas darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan. M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek "Tarixdan ma'no izlashni Oybek umrining oxirigacha davom qildirdi. U o'zining "Bolalik" qissasida temirchi Jo'ra, Tursunlar va Yo'lchilar davriga murojaat qiladi. "Bolalik"da temirchi jo'rani eslatadigan kosib va masteroviylar obrazini yaratdi. "Bolalik"da yana bir xulosa Oybek poemalari bilan uchrashamiz. Bu esa adib qahramonlarining hayotiy ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Oybekning "Bolalik" qissasi shaxsiy sarguzashtlar ifodasi bo'lib qolmasdan, adib qalamining har bir harakatida katta umumlashmalar, davrning xarakterli voqealari, muhim masalalari talqini yotadi. Asar bosh qahramoni Muso doim bobosi Otaqo'zi bilan birga yuradi. Undan latifalar, ertaklar, rivoyatlar tinglaydi. Ikkinchi bobosi (onasining otasi) ham Musoni juda yaxshi ko'radi. Muso bobosi huzurida xalifalarning turli hangomalarini eshitadi. Opasi Karomatning Mashrab, Fuzuliy g'azallarini o'qishi Musoda kitobga havas uyg'otadi. U maktabga o'qishga borganda ham qunt bilan domlasi buyurgan vazifalarni bajaradi. U ayniqsa Navoiy she'riyatini juda sevadi.

"Shum bola" qissasida Qoravoy tayyor o'smir sifatida kirib keladi. Uning harakatlari va dunyoqarashi dinamik tarzda rivojlanadi. "Bolalik"da esa o'zgacha holat. Musavoy bolalikdan o'smirlikkacha bo'lgan davrni tadrijiy tarzda bosib o'tadi. Natijada, qissada tasvir ko'payib ketadi. Bu esa qahramon ruhiyatini ichki tug'yonlari bilan tasvirlashni cheklaganday bo'ladi. "Shum bola"da esa harakat kuchli. G'. G'ulom qahramoni turli vaziyatlarda o'zini tutishi, qiliqlari, gap-so'zlari bilan o'zini to'la namoyon etadi.

¹ Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ma'lumki, qahramon ruhiyati monolog va dialoglarda ochiladi. "Bolalik"da dialoglarga katta vazifalar yuklanmagan. Musavoyning dialoglari faqat tengqurlari va tanishlari doirasida bo'ladi. Shum bolani esa, biz dialoglardan anglaymiz, u hayotning barcha tabaqa vakillari bilan muloqotga kirishadi va ularning ko'pida g'olib keladi.

Oybek avtobiografik uslubni qo'llab o'zini biroz cheklaganday bo'ladi. Qahramoniga Shum bola kabi to'la erkinlik bera olmaydi. Shunday bo'lsa-da, ko'p o'rinda ruhiyatidagi erkka tashnalikni qahramoniga ko'chirishga urinadi. Masalan, "Maktab jahannam kabi tuyuladi. Har soat, har daqiqa "ozod" so'ziga intizormiz". Parchadagi "ozod" so'zi faqatgina "tanaffus, uyga javob" ma'nosida emas, unda bir umr tazyiq ostida yashagan muallifning ruhiyati ham aks etgan. Matnda "ozod" so'zi qo'llanishining o'zi muallifning ruhiy erkinlikka tashna bo'lganini ko'rsatadi.

Bola obrzini badiiyatga olib kirish yo'lidagi yana bir ildam va ishonchli qadam bu, so'zsiz, Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asaridir. "O'tmishdan'ertaklar" yozuvchi ijodining qissasi o'ziga xos yakuni, so'nggi cho'qqisi bo'ldi.

Garchi «O'tmishdan ertaklar»dan keyin ham bir qator hikoyalar, «Muhabbat» qissasi yaratilgan, ularda qahhorona bitilgan satrlar bo'lsa-da, badiiy yetuklik jihatidan „O'tmishdan ertaklar» bilan tenglasha olmaydi.

„O'tmishdan'ertaklar" muallifning bolalikda ko'rgan-kechirganlari haqidagi avtobiografik asar, biroq o'zbek adabiyotidagi mavjud avtobiografik asarlardan, jumladan, zamondoshi Oybekning «Bolalik» qissasidan keskin farq qiladi. «Bolalik»da lirik talqin, hodisalarni shoirona idrok etish ustun. Bola obrazi Oybek qissasida birinchi planda ko'rinsa, uning ko'rgan-kechirganlari, sarguzashtlari, shu kechinmalari tufayli murg'ak qalbda tug'ilgan rang-barang tuyg'ular ifodasi asar asosini tashkil etsa, „O'tmishdan ertaklar»da bola Abdulla obrazi orqa o'rinda turadi, u asosan «kuzatuvchi», «guvoh», «xolis hikoyachi» tarzida beriladi; yozuvchining asosiy diqqat-e'tibori bola guvohligida oilada, oila tevaragida yuz bergan voqealarni-turmushning obyektiv lavhalarini chizishga qaratilgan. Bu qissada ham yozuvchi hikoyanavisligicha qoladi, oxirgi «Qo'qon xarobalari orasida» bobini mustasno etganda, qissaning sarlavhalangan deyarli har bir bobi tugal hikoyadir, aniqrog'i ular fojiali ruhdagi voqeiy novellalardir. Yozuvchi bu asarida real hayotda ko'rgan-kechirganlaridan «badiiy to'qima»-ijodiy fantaziyalarsiz yetuk hikoya-tugal san'at asari yaratishning, real'hayot «haqiqatini dildan o'tkazish, unga ko'ngildagi gaplarni singdirish»ning ajoyib namunalari berdi. Umr bo'yi adibga tinchlik bermagan, butun ijodida temirchi o'chog'idagi cho'g'dek yallig'lanib turgan inson sha'ni, qadri bilan bog'liq alamlar o'y-tuyg'ular, jaholatga qarshi isyon bu qissada adibning so'nggi faryodi-fig'oni kabi yangradi.

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi ham yuqoridagi fikrlarimizga asos bo'ladi. "Shum bola" mukammal yozilgan pishiq asar, uning sujeti kishini hayratga soladi". Qissa qahramonining asl ismi pinhon tutiladi, u 14-15 yoshli o'smir yigidir. Yarim yillik sarguzashti davomida u hayotning barcha jabhalarini, undagi ikir-chikirlargacha ko'zdan kechiradi.

Jahon adabiyotida ham azaldan ko'p uchrovchi, bizni tarixiy asarlarimizda ham ko'plab murojaat etilgan mavzu bu sarguzasht motividir. G'. G'ulom qahramoni ham sarguzashtga chiqadi. Muallif o'z badiiy istaklarini sarguzasht davomida kitobxonga anglatib boradi. Qissadagi real voqealiklar g'alati tasodiflar fonida, kutilmagan tarzda aks ettiriladi. Qahramonlar ruhiyati birinchi o'ringa olib chiqilib, aql ikkinchi darajali qurolga aylanadi. Agar Shum bola aql egasi sifatida tasvirlanganda bu kabi erkinliklarga ega bo'lmasdi va asar ham hozirgidek shuhrat qozonolmasdi. Muallif buni anglagan holda o'z qahramoniga katta ruhiy erkinlik beradi. Badiiy asarda ruhiy erkinlikni ta'minlash esa badiiylikning muhim asosi sanaladi.

"Shum bola"da ruhiy kechinma va tuyg'u bolada rivojlangan bo'lib, uni shakllantirish, butun boshli mafkuraga qarshi qo'yish, aql bilan tizinni boshqarish yozuvchining o'zida qolgan. Muallif va qahramon o'rtasidagi aqliy va ruhiy asoslar uyg'unlashib asar badiiy qimmatini ta'minlagan.

Shum bolaning o'smir yoshda bo'lishi diqqatga sazovor. Yosh davrlari psixologiyasiga ko'ra, u o'tish davrini boshdan kechirayotgan, rivojlanayotgan o'smirdir. Bu davrda o'smirning "men"i qaytadan shakllanadi. Uning atrofida, ayniqsa, o'z-o'ziga munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Psixologlar o'rtasida yoshni davrlashtirishda tafovutlar bor, lekin barcha psixologlarning tasnifiga ko'ra ham shum bola o'smirdir. Psixolog D. I. Feldshteynning fikricha, shaxs shakllanishi jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi. Bu "Men jamiyat ichida" va "Men va jamiyat", degan pozitsiyalardir. Bu bosqichlarni bosib o'tish uchun shaxs kamida besh-olti yil kerak bo'ladi. Shum bola esa, olti oy ichida bu bosqichlardan o'tib, o'z-o'zini anglashga yetib boradi. Bundan anglashiladiki, Shum bola dinamik tarzda rivojlanuvchi xarakter, uning xarakteri dinamikasiga ijtimoiy hayot hodisalari turtki beradi.

Ijod ahli erkinlik kishilari ekanligiga va ijod mahsuli erkinlik mevasi sifatida maydonga kelishiga shubha yo'q. G'. G'ulomning ong ostida hamisha ruhiy erkinlikka tashnalik yashab kelgan. Hukmron mafkura tazyiqi ostida bu tashnalik yana ham ortgan. Ruhiy tashnalikni ifodalash uchun unga ramziy obraz, aynan Shum bola kerak edi. Muallif unga badiiy, ramziy so'z vositasida o'zidagi ruhiy tashnalik, o'tkir yumorni yuklay olgan. Natijada, Shum bola o'smirlikdoyoq o'z-o'zini anglagan, yetarli darajada mukammallikka erishgan badiiy obraz sifatida gavdalangan.

Xullas, tahlilga tortilgan asarlarda so'z psixologiyasi va psixologik tasvirlarga keng o'rin berilgan. Qolaversa, ularning yana bir xarakterli jihati, ularda bola obrazlarining mavjudligidir. Chunki muallif asarda bola obrazini yaratishdan muayyan badiiy maqsadni ko'zlaydi, uning ruhiy erkinlikka bo'lgan tashnaligi bola obrazida mujassamlashadi. XX asr o'zbek nasrining rivojlanishi, unda inson ruhiy olamini kengroq tasvirlashga urinishda namoyon bo'ldi.